

## SHEKSPIR SONETLARIDA YOR OBRAZI VA UNING TARJIMADAGI TALQINI

*Mohinur To‘lanboyeva,  
Sabrina Fayziyeva,  
O‘zDJTU 1-bosqich magistrantlari  
Ilmiy rahbar: B. Xolbekova, dotsent.*

**Annotatsiya:** *Shekspir sonetlari jahon adabiyotining durdonalari sanaladi. Uning she‘rlarida yor obrazi chuqur, ko‘p qirrali va ziddiyatli bo‘lib, insoniy hissiyotlar, muhabbat va go‘zallikning falsafiy talqinlari orqali boyitilgan. Ushbu maqolada Shekspir sonetlaridagi yor obrazining tahlili va uning tarjimadagi talqini masalalari ko‘rib chiqiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Shekspir, sonet, yor, obraz, tarjima, talqin, go‘zallik, soflik;*

Shekspir sonetlarida yor obrazini an’anaviy va noan’anaviy usullarda uchratish mumkin. Odatda yor tasviri go‘zallik va soflik timsoli sifatida beriladi, biroq Shekspir yor obraziga murakkablik va ziddiyat olib kiradi. Yor ko‘pincha g‘ayritabiiy go‘zallik egasi sifatida ko‘rinsa-da, insoniy kamchiliklardan holi emas. Masalan, yor go‘zalligi ba’zida vaqt o‘tishi bilan so‘nishi va abadiylikdan mahrumligi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Tarjima jarayonida yor obrazining ma’nosi ko‘pincha o‘zgarib ketishi mumkin. Masalan, Shekspirning original sonetlarida yor go‘zalligining o‘ziga xos uslubda ifodalanishi tarjimaga aniq yetkazilmasligi yoki tarjimonning shaxsiy hissiyotlari orqali qayta talqin qilinishi mumkin. Yorning hissiy holati, u bilan bog‘liq nozik psixologik jihatlar tarjimada yo‘qolishi mumkin, ayniqsa, original matndagi metaforalar, metonimiya va turli simvollar. Tarjimalarda yor obrazining o‘zgartirilishi turli omillarga bog‘liq. Bular tarjimonning madaniy fondi, she‘riyat va adabiyotga bo‘lgan qarashlari, ma’lum bir tilning lisoniy imkoniyatlari va tarjima qilingan davr bilan bog‘liqdir. Misol uchun, rus tilidagi tarjimalarda yor obrazining milliy madaniyatga xos bo‘lgan hissiyotlar va munosabatlar orqali qayta talqin qilinishi kuzatiladi. Tarjimalarda yorning xususiyatlari ba’zan kuchaytiriladi yoki zaiflashtiriladi, bu tarjimonning uslubiy tanlovlariga bog‘liq. Shuningdek, sonetlarning strukturasi saqlab qolish uchun ba’zan tarjimonlar yor obrazining aniq tafsilotlarini soddalashtiradi yoki o‘zgartiradi. Shekspir sonetlarida yor obrazi chuqur falsafiy va psixologik ma’noga ega bo‘lib, uning tarjimasini ko‘pincha murakkab va nozik jarayon hisoblanadi.

Yor obrazining tarjimada talqini jarayonida tarjimon matnning poetik, estetik va madaniy jihatlarini chuqur anglab, ularni yangi tilga samarali ko‘chira olishi muhim. Har bir tarjima asar original matnning o‘ziga xosligini aks ettirsa-da, tarjimonning individualligi va tarjima davri bilan bog‘liq o‘zgarishlar yor obrazining o‘ziga xosligini ham o‘zgartirishi mumkin.

Shekspir sonetlari orasida muhabbatning turli qirralari va his-tuyg‘ulari ko‘rinadi, jumladan, ehtiros, sadoqat, hasrat, va vaqt o‘tishi bilan keladigan

o‘zgarishlar. Bu sonetlar turli tarjimonlar tomonidan qayta talqin qilinib, turlicha tarjimalarga ega bo‘lgan. Quyida mashhur - **“My mistress' eyes are nothing like the sun”** misrasi bilan boshlanadigan mashhur sonet va uning rus tilidagi tarjimasini keltiramiz:

My mistress' eyes are nothing like the sun;  
 Coral is far more red than her lips' red;  
 If snow be white, why then her breasts are dun;  
 If hairs be wires, black wires grow on her head.  
 I have seen roses damask'd, red and white,  
 But no such roses see I in her cheeks;  
 And in some perfumes is there more delight  
 Than in the breath that from my mistress reeks.  
 I love to hear her speak, yet well I know  
 That music hath a far more pleasing sound;  
 I grant I never saw a goddess go;  
 My mistress, when she walks, treads on the ground:  
 And yet, by heaven, I think my love as rare  
 As any she belied with false compare.

Samuil Marshak tarjimasini:

Её глаза на звезды не похожи,  
 Нельзя уста кораллами назвать,  
 Не белоснежна плеч открытых кожа,  
 И чёрной проволокой вьётся прядь.  
 С дамасской розой, алой или белой,  
 Нельзя сравнить оттенок её щёк,  
 А тело пахнет так, как пахнет тело,  
 Не как фиалки нежный лепесток.  
 Ты не найдёшь в её речах совершенства,  
 Но мне милее голос милый мой,  
 Я не видал богини в нашем месте,  
 Но твёрдо знаю: держится земной.  
 И всё ж она уступит тем едва ли,  
 Кого в сравнениях пышных оболгали.

Bu sonetda Shekspir sevgilisini klassik go‘zallik ideallariga mos kelmaydigan, lekin shunga qaramay chin yurakdan sevganini hazilomuz tarzda tasvirlaydi. Marshakning tarjimasini asl mazmuni saqlab qolgan holda, rus tiliga mohirona moslashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda Shekspir sonetlarini boshqa tillarga tarjima qilish jarayoni murakkab, chunki uning she‘rlaridagi go‘zallik nafaqat mazmun, balki shakl, uslub va tilning boyligi bilan bog‘liqdir. Yor obrazini tarjimada talqin qilishda



tarjimon nafaqat matnning leksik va grammatik jihatlarini, balki uning poetik va estetik xususiyatlarini ham hisobga olishi kerak bo‘ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:**

1. Shekspir Tanlangan asarlar to‘plami, Toshkent-2005.
2. M. Xolbekov.Uilyam Shekspir ijodi va sonetlari haqida. T.2009.
3. Вильям Шекспир. Танланган асарлар, 5 жилдлик (1981-1985) Т. Адиб ва санъат нашриёти.
4. <https://kh-davron.uz>